



P03-mashq. Tuproqning fizik xususiyatlari


TUPPOQ STRUKTURASI – AGREGATLAR CHIDAMLILIGI: TO'YINTIRISH SINIVI¹

4 – 6- 7a -10a – 10b-ma'lumot plakatlari.

DOLZARBLIGI

Tuproq structurasi mustahkamligi tuproqning kimyoviy, fizik va biologik xossalari bilan bog'liq bo'lgan asosiy xususiyatdir. To'yintirish sinovi dalada tuproq strukturasi baholashning oddiy usuli hisoblanadi. Struktura yomon bo'lgan tuproq bo'laklari suvga solinganda parchalanib ketishi kuzatuviga asoslanadi. Agar tuproq strukturasi mustahkam bo'lsa, suv tuproq g'ovaklariga kirib, agregatning parchalanishiga olib kelmasdan havoni siqib chiqarishi mumkin. Ishonchliroq baholash uchun turli tuproqlarni solishtirish tavsiya etiladi.

MATERIALLAR*



Simli to'r



Kichkina belkurak



Stakan



Sekundomer

*Suv kerak bo'ladi

JARAYON

1) Simli to'rni suv bilan to'ldirilgan stakanga joylashtiring.



© S. Pioli

2) Kichkina qo'l belkuragi bilan bir bo'lak tuproq yig'ing.




© S. Pioli

3) Tuproq agregati namunasini to'rga qo'ying, shunda butun namuna suv ostida qoladi.



© S. Pioli

JARAYON	4) Namuna qanchalik tez parchalanishini aniqlash uchun sekundomerdan foydalaning.	 © S. Piroli
USULNING AFZALLIKLARI	Turli mexanik tarkibli va/yoki boshqa tuproqlarni solishtirish mumkin. Tez hisoblash.	
USULNING KAMCHILIKLARI	Aniqroq baholash uchun sinovdan oldin tuproqni havo bilan quritish kerak.	
SAVOLLAR	Tuproq suvda parchalanishi uchun qancha vaqt kerak bo'ladi? 5 daqiqadan so'ng tuproq bo'lagining necha foizi qoladi? Turli xil tuproq turlarini solishtirdingizmi? Qanday xulosa chiqarishingiz mumkin? Tez eritmaga aylanishi sababi nima bo'lishi mumkin?	

BAHOLASH AMALLARI		
YOMON	O'RTA	YAXSHI
Tuproq bo'lagi 2 daqiqadan kamroq vaqt ichida ajraladi va parchalanadi.	Tuproq bo'lagi 2-10 daqiqada ajraladi va parchalanadi / bo'lakning kichik bir qismi butunligicha qoladi.	Tuproq bo'lagi 10 daqiqadan so'ng ajraladi va parchalanadi / bo'lakning katta qismi butunligicha qoladi.

¹ https://www.nrcs.usda.gov/wps/PA_NRCSCconsumption/download?cid=nrcseprd1762487&ext=pdf
<https://quviracoalition.org/product/soil-health-workbook/>